



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIIYA CHINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK XIZMATNI TAKOMILLASH TIRISH YULLARI

Sh. A. Sodiqova

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha talim metodikasi” professori.p.f.n.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15078562>

Annotatsiya: *Ushbu makola maktabgacha talim tashkilotlaridagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xayotda ijtimoiylashuvi va unga tasir kiluvchi omillar xakida boradi. Makolada ijtimoiy pedagogning roli uning metodikasi ochib berilgan. Bola tarbiyasida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish, ijtimoiy qadriyatlar ustuvorligi ta'minlash, bolaning ijtimoiylashuvi samarali yullar bilan amalga oshirish xakida suz boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasidagi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga e'tibor qaratish zarurligini taqoza etadi.*

Tayanch so'zlar: *Talim, ijtimoiy, pedagog, xizmat, rivojlanish, ijtimoiylashuv, me'yor, kadriyat, integratsiya, zaruriyat, jarayon.*

Аннотация: *Данная статья посвящена вопросам социализации детей дошкольного возраста в дошкольных образовательных учреждениях и факторам, влияющим на этот процесс. В статье раскрывается роль социального педагога и его методики работы. Рассматриваются вопросы налаживания правильного взаимодействия семьи и дошкольного образовательного учреждения в воспитании ребенка, обеспечение приоритета социальных ценностей и эффективных способов социализации ребенка. Это требует уделения внимания необходимости освоения воспитателями дошкольных образовательных учреждений необходимых знаний, умений и навыков.*

Ключивые слова: *Образование, социальный, педагог, служба, развития, социализация, норма, ценности, интеграция, нужда, процесс.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ob'ekti ijtimoiylashuv jarayoni qiyin kechayotgan, mazkur jarayonda muayyan yordamga muhtoj bolalar sanaladi.

Mazkur toifaga ijtimoiy tarbiyadan mahrum bo'lgan, jismoniy, psixologik, aqliy rivojlanishi buzilgan, shuningdek, jamiyatimizda qabul qilingan pedagogik, psixologik, ijtimoiy me'yorlardan orqada qolayotgan bolalar kiritiladi.

Agar bolaning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bo'lsa, bu holatda ijtimoiy-pedagogik xizmatga muhtojlik sezilmaydi.

Bola tarbiyasida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgan, ijtimoiy qadriyatlar ustuvorligi ta'minlangan holatda bolaning ijtimoiylashuvi samarali amalga oshiriladi.

Bola dastlabki ijtimoiy qadriyatlarni oiladagi muhit va oila a'zolarining ijtimoiy qarashlari orqali o'zlashtiradi. Oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning rivojlanishi, tarbiyalash va dastlabki propevdik bilimlarni o'zlashtirish



jarayoni to‘g‘ri ya‘ni maqsadga muvofiq tashkil etilmasligi natijasida bolaning jamiyat bilan ijtimoiylashuvi og‘ir kechadi.

Ma‘lumki, ijtimoiy-pedagogik xizmat uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida amalga oshirilishi, avvalgi bo‘g‘inlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar keyingi bo‘g‘inda barham berilishi lozim.

Uzluksiz ta‘lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tashkilotida ijtimoiy-pedagogik xizmatning samarali amalga oshirilishi bolaning mazkur tizimning keyingi bo‘g‘inlarida rivojlanish, tarbiyalanish va tahsil olish jarayoniga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ijtimoiy-pedagogik xizmat mazkur ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, mazkur xizmatning asosiy maqsadi bolaning jamiyat bilan integrallashuvi jarayonida uning oldida turgan qiyinchiliklarni engishda pedagogik yordam ko‘rsatish, rivojlanish, tarbiyalanish va bolaning uzluksiz ta‘lim tizimining keyingi bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta‘limda tahsil olish jarayoniga tayyorlash, bir so‘z bilan aytganda bolaning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga muayyan ta‘sir ko‘rsatish sanaladi.

Mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy-pedagogik xizmat bolaning hayotida etishmayotgan, muayyan tarzda ehtiyoj sezayotgan sharoit va muhitni vujudga keltirishi lozim.

Tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik faoliyatining maqsadi bolaning xavfsizligini ta‘minlaydigan, uning ehtiyojlarini ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy, pedagogik omillar yordamida qondirish, oila, bog‘cha va bolani o‘rab turgan muhitdagi salbiy omillardan himoya etadigan qulay ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish sanaladi.

Tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik faoliyati bola yashayotgan muhitning muammolari va ularni hal etishga qaratilgan ekan, demak u mutaxassis sifatida bolaning rivojlanishi amalga oshirilayotgan oiladagi muhitni diagnostik tashxis qilishning turli psixologik, pedagogik, ijtimoiy metodlarni bilishi, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi, zarur hollarda psixologik, huquqni himoya qilish, tibbiyot xodimlariga murojaat etish yo‘llarini belgilashi lozim.

Bolaning ijtimoiylashuviga ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarni aniqlashi, uning rivojlanishi, tarbiyasida yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarga barham berish, mazkur jarayonning normal kechishiga imkon beradigan metodlar va vositalarni aniqlashi lozim. Buning uchun tarbiyachi bolaning normal ijtimoiylashuvi va undan chetga chiqishni aniqlashning diagnostik tahlil qilish ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi lozim.



O‘z vaqtida belgilangan chora-tadbirlar, samarali metod va vositalarning qo‘llanishi bolaning ijtimoiylashuvi jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi bolaning ijtimoiylashuvi jarayonining buzilishiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni aniqlashi, agar mazkur omillar bolaning sog‘ligini tiklash va moddiy ta’minotini yaxshilash muammosi bilan bog‘liqligi aniqlangan holda ularni hal etish ijtimoiy-pedagogik xizmat doirasidan tashqari bo‘lganligi sababli, u tibbiyot, huquqni himoya qilish, ijtimoiy himoya tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishi nazarda tutiladi. Bu jarayonda tarbiyachi mazkur muammolarni hal etishda muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaradi.

Tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik faoliyati bolaning ijtimoiylashuv jarayonini yaxshilash maqsadida oila, ta’lim tashkiloti, tashxis markazi, sog‘likni saqlash, ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borish va mazkur jarayonni muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi kerak.

Tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, uning yashash, salomatligini saqlash, rivojlanish, tarbiyalanish, tahsil olish, o‘zining qarashlarini bayon etish huquqlarining paymol etishning oldini olish sanaladi.

Tarbiyachi o‘zining ijtimoiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish maqsadida jamiyatimizda qabul qilingan qonunlar, me‘yoriy hujjatlar va ular asosida qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘llarini belgilashi, bu boradagi bilimi, ko‘nikma va malakalarini orttirish yo‘llarini belgilashi, bir so‘z bilan aytganda zamon bilan hamnafas odim tashlashi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashkil etilayotgan ijtimoiy-pedagogik yo‘nalishdagi loyiha va dasturlarda ishtirok etishi, unda o‘zining bilimi, ko‘nikma va malakalarini namoyon etishi zarur.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy-pedagog mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular tomonidan ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik xizmat amalga oshiriladi.

Respublikamizda ijtimoiy-pedagog mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanishi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli mazkur xizmat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachilari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasidagi ijtimoiy-pedagogik xizmatni takomillashtirish maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari mazkur ta’lim muassasasiga qabul qilingan bolaning rivojlanish darajasi, u yashayotgan muhitni



tahlil etishi, bolaning ijtimoiylashuvi og‘ir kechayotgan hollarda mazkur jarayonga salbiy ko‘rsatayotgan omillarni aniqlashi zarur;

2. Bolaning ijtimoiylashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarning oldini olish, uning rivojlanishi va hayot faoliyatiga xavfsizligini ta‘minlaydigan qulay psixologik muhitni yaratish bo‘yicha individual tavsiyalar ishlab chiqishi lozim;

3. Bolaning aqliy, jismoniy, ruhiy, ma‘naviy rivojlanishini diagnostik tahlil qilish, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarga barham berish, uning rivojlanish jarayonini me‘yorlashtirish uchun pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishi kerak;

4. Zarur hollarda u tashxis markazi, tibbiyot, ijtimoiy himoya tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni og‘ir kechayotgan hollarda mazkur tashkilotlarning ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha reja ishlab chiqishi talab etiladi;

5. Bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida ta‘lim tashkiloti, mahalla, oila va tegishli tashkilotlarning hamkorligidagi ishlarni yo‘lga qo‘yish, salbiy va zararli omillarning oldini olish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishi, bu yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishi zarur.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasidagi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashiga e‘tibor qaratish zarurligini taqoza etadi.

Adabiyotlar:

1. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). Pedagogical innovation cluster of activity of centers in preschool education. *Science and Innovation*, 1(7), 1138-1143.
2. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). Features of the development of preschool children in a bilingual environment. *science and innovation*, 1(b7), 1440-1444.
3. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations- Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.
4. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations- Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.
5. Sodiqova, S., & Yakubova, Z. (2022). O ‘quv mashg ‘ulotlarining talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi o ‘rni. *Science and innovation*, 1(B7), 855-859.
6. Sadikova, S., & Sultanmuratova, Y. (2022). The importance of teaching street safety to children in preschool educational institutions. *Science and innovation*, 1(B7), 1519-1521.
7. Sadikova, S., & Abdusabirova, L. (2022). Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari va mazmuni. *Science and innovation*, 1(b8), 760-764.
8. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). Maktabgacha talimda markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri. *Science and innovation*, 1(b7), 1138-1143.